O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

B.Xodjayev
01.07.2026-yil

OILA VA MEROS HUQUQI

moduli o‘quv dasturi (sillabus)

6 KREDIT (ECTS)

Bilim sohasi:	400000	– *Biznes, boshqaruv va huquq*
Ta’lim sohasi:	420000	– Huquq
Ta’lim yo‘nalishi:	60420100	– Yurisprudensiya

Kursga oid ma’lumotlar
Moduli kodi: OMX3A12
Modul nomi: Oila va meros huquqi
O‘quv semesteri: 1-semester O‘quv yili / 2026-2027-o‘quv yili
Sho`ba nomi: Fuqarolik huquqi
Kreditlar/Modulga ajratilgan soatlar / 6 ECTS (150 soat)
Modul rahbari: U.Maxmudxodjayeva
musanifa-88@mail.ru
Qabul vaqti: Dushanba 10.00-12.00
Universitet Kengashi yig‘ilish bayonnomasi: № 21 01.07.2026-yil

Toshkent – 2026 y.

I. MODUL TAVSIFI

“Oila va meros huquqi” moduli O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash, fuqarolarning oilaviy hamda merosga oid huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, shuningdek, zamonaviy fuqarolik-huquqiy munosabatlar rivojlanishi sharoitida oila va meros huquqining nazariy hamda amaliy asoslarini o‘rganishga qaratilgan.

Mazkur modul doirasida oilaviy va meros munosabatlarini huquqiy tartibga solishning predmeti, tamoyillari, manbalari va usullari, nikoh tuzish va bekor qilish, er-xotinlarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlari, ota-ona va bolalarning huquqiy maqomi, aliment majburiyatlari, vasiylik va homiylik, farzandlikka olish, shuningdek, merosning ochilishi, merosxo‘rlik asoslari, vasiyatnoma bo‘yicha va qonun bo‘yicha meros olish, merosni qabul qilish hamda merosga oid nizolarni hal etish masalalari chuqur o‘rganiladi.

Modulni o‘qitish natijasida talabalarda oilaviy va merosga oid huquqiy munosabatlarni tahlil qilish, amaldagi qonunchilikni to‘g‘ri qo‘llash, huquqiy hujjatlarni tayyorlash, huquqiy nizolarni yechish va kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish nazarda tutiladi.

Modul o‘zbek, rus va ingliz tillarida olib boriladi.

II. MODULNING ASOSIY TALABLARI

Oila va meros huquqi moduli bakalavriat xususiy huquq ta’lim yo‘nalishlari 3-kurs talabalari uchun mo‘ljallangan asosiy fan bo‘lib, modulni o‘zlashtirishga kirishishda talabalardan Davlat va huquq nazariyasi, Konstitutsiyaviy huquq, Fuqarolik huquqiga kirish modullari bo‘yicha bazaviy bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi.

III. MODUL TARKIBI

6 ECTS. 28 nazariy qism soati, 27 amaliy qism soati.

Nazariy qism		Amaliy qism	Baholash	Mustaqil ta’lim	Jami
Ma’ruza mashg`uloti	Seminar mashg‘uloti				
20	8	27	5	90	150

O‘quv kursi individual va jamoaviy topshiriqlarning uyg‘unligi asosida tashkil etilib, talabalarda oila va meros huquqi sohasiga oid nazariy bilimlar hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. O‘quv jarayonida interfaol ta’lim usullari, kazuslar (case study), huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, sud va notarial amaliyotiga oid hujjatlar bilan ishlash, munozaralar hamda o‘quv-mashg‘ulot sudi (Moot Court) elementlaridan foydalaniladi.

IV. MODULNING MAQSADI

Mazkur modulning maqsadi talabalarda oila va meros huquqiga oid nazariy bilimlar hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Xususan, modul yakunida talabalar quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishlari nazarda tutiladi:

oila huquqining tushunchasi, predmeti, usuli, tamoyillari va manbalari, shuningdek, oila huquqining fuqarolik huquqi tizimidagi o‘rni yuzasidan chuqur nazariy bilimlarni egallash;

nikoh tushunchasi, uni tuzishning huquqiy shartlari va tartibi, nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari hamda oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi bilan bog‘liq huquqiy institutlarni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish;

er-xotinning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlari, ularning umumiy va alohida mulki, nikoh shartnomasi, ota-onalar va bolalarning huquq hamda majburiyatlari, aliment majburiyatlari yuzasidan qonunchilik normalarini mustaqil qo‘llash va huquqiy vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga joylashtirish shakllari (farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, patronat), shuningdek, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartibiga oid huquqiy hujjatlar bilan ishlash va ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish;

meros huquqining umumiy qoidalari, qonun bo‘yicha va vasiyatnoma bo‘yicha vorislik, merosni qabul qilish va rad etishning huquqiy asoslari yuzasidan amaldagi qonunchilikni sharhlash hamda huquqni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish ko‘nikmalarini hosil qilish;

oilaviy va merosga oid huquqiy hujjatlar (nikoh shartnomasi, vasiyatnoma, merosni qabul qilish yoki undan voz kechish to‘g‘risidagi arizalar va boshqa hujjatlar)ni rasmiylashtirish, qonun hujjatlarini sharhlash hamda ular bilan mustaqil ishlash bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish;

oilaviy va merosga oid nizolarni huquqiy tahlil qilish, ularni sud va notarial amaliyot nuqtayi nazaridan baholash, huquqiy pozitsiyani shakllantirish hamda nizolarni hal etish yuzasidan asoslantirilgan xulosalar tayyorlash ko‘nikmalarini egallash;

raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning vorislik munosabatlarida qo‘llanilishi, raqamli aktivlar merosi hamda ushbu sohadagi zamonaviy huquqiy muammolarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

xorijiy davlatlarning oila va meros huquqi institutlari bilan tanishish, milliy qonunchilikni qiyosiy-huquqiy tahlil qilish hamda ilg‘or xorijiy tajribani baholash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

V. MODULDAN KUTILGAN NATIJALAR (MKN)

Modulni yakunlash natijasida talabalar:

- oila va meros huquqining asosiy tushunchalari, tamoyillari, manbalari,

nikoh, er-xotin, ota-ona va bolalarning huquq va majburiyatlari, meros huquqi hamda qonun va vasiyatnoma bo‘yicha vorislikning huquqiy asoslarini bilish (MKN I);

- oila va meros huquqiga oid qonunchilik normalari hamda huquqiy hujjatlarni to‘g‘ri sharhlash va tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish (MKN II);
- oilaviy va meros huquqiy munosabatlarini tahlil qilish, ularning ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini aniqlash hamda huquqiy vaziyatlarga baho bera olish (MKN III);
- oilaviy va merosga oid huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish, qonunchilikni amaliyotda qo‘llash va huquqiy nizolarni hal etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish (MKN IV);
- oila va meros huquqiga oid sud va notarial amaliyotni tahlil qilish, qonunchilik hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni, jumladan, sun’iy intellektni vorislik munosabatlarida qo‘llash masalalarini baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish (MKN V).

VI. ASSESSMENT VA BAHOLASH

Moduldan kutilgan natijalarga erishilganlik quyidagi assessmentlar orqali baholanadi:

1) 1-oraliq nazorat (nazariy).

Baholanadi: MKN I, MKN III

Assessment topshirig‘i: Talabalarga modul doirasida o‘tilgan mavzular doirasidan tanlanganing nazariy va huquqiy asoslari bo‘yicha 1 ta slayddan iborat infografika tayyorlash.

Mazkur topshiriqni bajarishda akademik halollikni ta’minlash hamda talabaning haqiqiy bilimini aniqlash maqsadida yozma ish og‘zaki himoya qilinadi. Og‘zaki himoya jarayonida talaba tayyorlagan materiali yuzasidan savollarga javob beradi, o‘z pozitsiyasini asoslaydi va mustaqil fikrlash darajasini namoyon etadi. Og‘zaki himoya natijalari umumiy baholashda inobatga olinadi.

Assessment rubrikasi: sillabusning 2-ilovasida berilgan.

Baholash: 20 ball

2) 2-oraliq nazorat (amaliy).

Baholanadi: MKN IV va MKN V

Assessment topshirig‘i: talabalarga keys va u bilan bog‘liq nazariy va amaliy savollar beriladi. Talabalar savollarga javobni 2 soatlik vaqt oralig‘ida auditoriya sharoitida javob taqdim etishlari lozim.

Shuningdek, kazus yechimiga mos ravishda talabalar amaliy-huquqiy hujjat ham tayyorlashlari mumkin. Bunday hujjat nikoh shartnomasi loyihasi, vasiyatnoma loyihasi, qomum bo`yicha merosga bolgan guvohnoma loyihasi, da’vo arizasi, huquqiy xulosa, muzokara pozitsiyasi yoki boshqa amaliy-huquqiy hujjat shaklida bo‘lishi mumkin.

Assessment topshirig‘i amaliyot tashkilotidagi faoliyat davomida o‘rganilgan umumlashtirilgan yoki modellashtirilgan materiallar asosida ham bajarilishi mumkin. Bunda shaxsga doir ma’lumotlar, tijorat siri va boshqa maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilmaslik talablari saqlanadi.

Mazkur topshiriq bo‘yicha ham talabaning tayyorlagan javobi va (yoki) hujjati og‘zaki tarzda himoya qilinadi. Talaba kazusni tahlil qilish jarayoni, qo‘llangan huquqiy manbalar va tanlangan yechimni asoslab berishi, berilgan savollarga mustaqil javob qaytarishi lozim. Bu jarayon talabaning amaliy ko‘nikmalarini real baholashga xizmat qiladi.

Assessment rubrikasi: sillabusning 3-ilovasida berilgan.

Baholash: 20 ball

3) Yakuniy nazorat.

Baholanadi: MKN I, MKN II, MKN III, MKN IV, MKN V

Assessment topshirig‘i: Talabalarga oila va meros huquqiga oid kompleks amaliy keys hamda nazariy savollar beriladi. Talabalar:

huquqiy vaziyatni tahlil qiladilar;

amaldagi qonunchilik normalarini sharhlaydilar;

huquqiy hujjatlar va dalillarni baholaydilar;

nizoga huquqiy yechim taklif qiladilar;

sud va notarial amaliyot asosida asoslantirilgan xulosa tayyorlaydilar.

Javoblar 2 soat davomida auditoriya sharoitida, kuzatuv ostida kompyuterda universitetning elektron ta’lim platformasi orqali yozma shaklda topshiriladi.

Assessment rubrikasi: sillabusning 4-ilovasida berilgan.

Baholash: 60 ball.

Oraliq va yakuniy nazorati baholash mezonlari (assessment rubrikasi) moduldan moduldan kutilgan natijalarga erishilganlik darajasini aniqlash hamda tegishli ballni qo‘yish uchun asos bo‘ladi.

Nazorat ishlari tekshirilgach, har bir talabaga konstruktiv taqriz (feedback) beriladi.

Yakuniy nazoratda baholashning xolisligini ta’minlash va inson omilini minimallashtirish maqsadida yozma ishlar sun’iy intellekt yordamida dastlabki tahlildan o‘tkaziladi. Sun’iy intellekt baholash mezonlari asosida professor-o‘qituvchiga tavsiya etiladigan ball va konstruktiv taqrizni taqdim etadi. Yakuniy baho professor-o‘qituvchi tomonidan belgilanadi.

Seminar mashg‘ulotlarini olib boruvchi professor-o‘qituvchi har bir dars davomida formativ assessment orqali talabalarning modul bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini kuzatib boradi hamda ularga ball qo‘ymasdan, tegishli tavsiya va konstruktiv fikr-mulohazalar (feedback) beradi.

Talabalar barcha nazorat ishlarini tayyorlashda Akademik halollik va tadqiqot etikasi kodeksi talablariga qat'iy rioya etishlari shart. Akademik halollik tamoyillari

buzilgan, jumladan plagiat aniqlangan ishlarga 0 ball qo‘yiladi yoki avval qo‘yilgan ball bekor qilinadi hamda amaldagi tartibda tegishli choralar ko‘riladi.

VII. O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI OLIB BORISH

Modul mashg‘ulotlari ma’ruza, seminar, amaliyot va mustaqil ta’lim shakllarida tashkil etiladi.

O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va olib borish talabaga yo‘naltirilgan ta’lim (student-centred teaching) tamoyili asosida olib boriladi.

O‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda professor-o‘qituvchilar fasilitator rolida bo‘lib, talabalar tomonidan darsga tayyorgarlik ko‘rib kelishda orttirgan bilimlarini yanada yuksaltirish va ularning soha bilan bog‘lik yuridik ko‘nikmalari va qadriyatlarini shakllantirishga ko‘maklashadilar.

Talabalar professor-o‘qituvchilar bilan darsda samarali muloqot qila olishlari uchun darsga tayyorgarlik ko‘rib kelishlari zarur.

O‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llanadigan metodlar moduldan kutilgan natijalar (MKN) va darsdan kutilgan natijalar (DKN)ga erishishga qaratiladi.

Ma’ruza mashg’ulotlarini olib borishda professor-o‘qituvchilar tomonidan nazariy masalalar amaliy misollar asosida o□qitiladi (problem-based learning). Bu orqali talabada muammoli vaziyatni tahlil va xulosa qilish kabi “yumshoq” ko□nikmalar (soft skills) va nazariy bilimlarni shakllantirishga e□tibor qaratiladi.

Seminar mashg‘ulotlarida Suqrot metodi, keys-stadi metodlaridan foydalaniladi.

Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida moduldan kutilgan natijalar (MKN) va darsdan kutilgan natijalar (DKN) hamda talabalarning ehtiyojidan kelib chiqib boshqa turli metodlar (interkativ taqdimotlar, kichik guruhlardagi muhokama, loyiha ishi va h.k.)dan ham foydalanilishi mumkin.

Modul mavzularining tarkibiy qismlari va mavzu doirasida tavsiya etiladigan adabiyotlar haqidagi batafsil ma’lumotlar ushbu sillabusning ilovasida keltirilgan.

VIII. MODULNING AMALIYOT QISMI

Modulning mustaqil ta’limdan tashqari soatlarining 50 foizi amaliyotga ajratilgan (sillabusning X qismi).

Amaliyot tashkilotidagi mashg‘ulot dars jadvallarida belgilangan hafta kunlarida seminar o‘qituvchisi tomonidan amaliyot tashkiloti xodimi – mentor bilan hamkorlikda olib boriladi.

Amaliyot materiallarining elektron shakllari modul papkaning amaliyot qismida beriladi.

Talabalar amaliyot bo‘yicha **reflektiv jurnal** yuritadilar. Unda talabalar o‘zlarida tegishli amaliy ko‘nikmalarning shakllanish va rivojlanish jarayonini kuzatib boradilar.

IX. MUSTAQIL TA’LIM

Mustaqil ta’lim talabaga ma’ruza va seminar mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rish, xususan, tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘qish, kazuslarning yechimiga tayyorgarlik ko‘rish, ma’ruza va seminar mashg‘ulotida ulgurilmay qolingan qismni mustaqil o‘zlashtirish va imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish doirasida kechadi.

Professor-o‘qituvchilar har bir guruhning umumiy o‘zlashtirish darajasi, guruhning umumiy yoki talabalarning modulni o‘zlashtirish bilan bog‘liq ehtiyoji va talabidan kelib chiqib mustaqil ta’lim uchun individual va alohida topshiriq berishi mumkin.

X. MODUL MAVZULARI

№	Mavzular	**Nazariy qism soati**		**Amaliy qism soati**	Mustaqil ta’lim soatlari
		Ma’ruza	Seminar		
1.	1 mavzu. Oila huquqiga kirish Oila huquqining umumiy qoidalari: tushunchasi, mohiyati, tamoyillari	2	2		6
2.	2-mavzu. Nikoh tushunchasi, uni tuzish tartibi va shartlari	2		4	12
3.	3-mavzu. Er-xotinning shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlari	2		4	9
4.	4-mavzu. Ota-onalar va bolalarning huquq va majburiyatlari	2		4	9
5.	5-mavzu. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari	2		3	9

	Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish				
6	6-mavzu. Meros huquqining umumiy qoidalari	2	4		12
7	7-mavzu. Qonun bo‘yicha vorislik	2		4	9
8	8-mavzu. Vasiyatnoma bo'yicha vorislik	2		4	9
9	9-mavzu. Merosni qabul qilish va rad etish	2		4	9
10	10 mavzu. Vorislik munosabatlarida sun’iy intellektning qo‘llanilishi	2	2		6
	Jami:	20	8 (5 – baholash)	27	90

Oila va meros huquqi moduli sillabusiga
ILOVA

MODUL KONTENTI

1-mavzu. Oila huquqiga kirish. Oila huquqining umumiy qoidalari: tushunchasi, mohiyati, tamoyillari

1. Oila huquqi tushunchasi, vazifalari, predmeti va metodlari
2. Oila huquqining xususiyatlari
3. Oila huquqining predmeti
4. Oila huquqining tamoyillari
5. Oila huquqining tizimi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Oila huquqi. Darslik.Mualliflar jamoasi –Toshkent: TDYU 2021.(Asosiy)
2. Topildiyev B.R., Imomniyozov D., Musaev Q. Oila huquqi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDYU, 2025.-126 b. (Asosiy)
3. Babajanova. D. Oila huquqi. O‘quv qo‘llanma – 2024. (Asosiy)
4. Yuldashev J.I. Vorislik va oila huquqi. Darslik. yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist O.Okyulovning umumiy tahriri ostida. - T.: TDYUU nashriyoti, 2024. 295-bet. (Asosiy)
5. Practising Family Law, 5th edition by Ian Serisier Published: 20 June, 2022 ISBN: 9780409356816.(Qo’shimcha) https://store.lexisnexis.

2-mavzu. Nikoh tushunchasi, uni tuzish tartibi va shartlari

1. Nikoh tushunchasi va uning huquqiy ahamiyati
2. Nikohni tuzish tartibi va shartlari
3. Nikoh tuzishga to‘sqinlik qiluvchi holatlar
4. Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish
5. Chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan va xorijda yashovchi O‘zbekiston Respublikasining fuqarolarining nikohini qayd etish

6.Ozodlikdan mahrum etish joylaridagi shaxslar bilan nikohni qayd etish

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi –Toshkent: TDYU 2021. (Asosiy)
2. Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamosi. –Toshkent: 2021. (Asosiy)
3. Topildiyev B.R., Imomniyozov D., Musaev Q. Oila huquqi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDYU, 2025.-126 b. (Asosiy)
4. Babajanova. D. Oila huquqi. O‘quv qo‘llanma – 2024. (Asosiy)

5. Yuldashev J.I. Vorislik va oila huquqi. Darslik. yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist O.Okyulovning umumiy tahriri ostida. -T.: TDYUU nashriyoti, 2024. 295-bet. (Asosiy)
6. Practising Family Law, 5th edition by Ian Serisier Published: 20 June, 2022 ISBN: 9780409356816. (Qo’shimcha).) https://store.lexisnexis

3-mavzu. Er-xotinning shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlari

1. Er-xotinning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari tushunchasi, turlari hamda umumiy tavsifi
2. Oilada er-xotinning teng huquqliligi tamoyili
3. Er-xotinning familiya tanlash huquqi
4. Er-xotinning mashg‘ulot turi, kasbi, turar joyi va yashash joyini erkin tanlash huquqi
5. Oilaviy masalalarni er-xotinning birgalikda hal qilishi
6. Er-xotin o‘rtasidagi mulkiy munosabatlar tushunchasi va umumiy tavsifi
7. Er-xotin mol-mulkining qonuniy huquqiy rejimi. Er-xotinning umumiy birgalikdagi mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish
8. Er-xotinning har biriga tegishli alohida mulk
9. Er-xotin mol-mulkining shartnomaviy huquqiy rejimi. Nikoh shartnomasi: tushunchasi, shakli, mazmuni, uni tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish tartibi, haqiqiy emas deb topish asoslari
10. Er-xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishda ulushlarni aniqlash tartibiVoyaga yetmagan bolalar huquqlarining kafolatlari

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1.Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamosi. –Toshkent: 2017. (Asosiy)
2.Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamosi. –Toshkent: 2021. (Asosiy)
3.Topildiyev B.R., Imomniyozov D., Musaev Q. Oila huquqi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: TDYU, 2025.-126 b. (Asosiy)
4.Babajanova. D. Oila huquqi. O‘quv qo‘llanma – 2024. (Asosiy)
5.Yuldashev J.I. Vorislik va oila huquqi. Darslik. yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist O.Okyulovning umumiy tahriri ostida. -T.: TDYUU nashriyoti, 2024. 295-bet. (Asosiy)
6.Practising Family Law, 5th edition by Ian Serisier Published: 20 June, 2022 ISBN: 9780409356816. (Qo’shimcha).) https://store.lexisnexis

4-mavzu. Ota-onalar va bolalarning huquq va majburiyatlari

1. Ota-onalar va bolalarning huquq va majburiyatlarining tasnifi
2. Voyaga etmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari
3. Ota-onalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari va majburiyatlari
4. Ota-onalar va bolalarning mulkiy huquqlari va majburiyatlari
5. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish
6. Ota-ona huquqlarini cheklash

7. Bolaning hayoti yoki sog'lig'iga bevosita tahdid tug'ilganda bolani olib qoyish

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamosi. –Toshkent: 2021. (Asosiy)
2. Topildiyev B.R., Imomniyozov D., Musaev Q. Oila huquqi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: TDYU, 2025.-126 b. (Asosiy)
3. Babajanova. D. Oila huquqi. O‘quv qo‘llanma – 2024. (Asosiy)
4. Yuldashev J.I. Vorislik va oila huquqi. Darslik. yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist O.Okyulovning umumiy tahriri ostida. -T.: TDYUU nashriyoti, 2024. 295-bet. (Asosiy)
5. Oila huquqida aliment munosabatlari. O‘quv qo‘llanma. U.Mahmudxodjayeva. M.Usmonova. Toshkent-2025. 123.bet (Asosiy)
6. Ota-ona va bolalar o‘rtasidagi fuqarolik va oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishni takomillashtirish. U.Maxmudxodjayeva. Monografiya. Toshkent-2025. 418-bet
7. Practising Family Law, 5th edition by Ian Serisier Published: 20 June, 2022 ISBN: 9780409356816. (Qo’shimcha).) https://store.lexisnexis

5-mavzu. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish

1. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari
2. Farzandlikka olishning tushunchasi, shartlari, tartibi va huquqiy ahamiyati
3. Bolani farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari
4. Farzandlikka olishni bekor qilish. Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari
5. Bolalarga nisbatan vasiylik va homiylik: tushunchasi va huquqiy ahamiyati
6. Vasiylik va homiylik organlari. Vasiylik va homiylikni belgilash. Bolalarning vasiylari (homiylari). Vasiylik yoki homiylik ostidagi bolalarning huquqlari
7. Vasiylik va homiylikning tugatilishi
8. Oilaga tarbiyaga oluvchi ota-onaga qo‘yiladigan talablar. Oilaga tarbiyaga berish uchun topshiriladigan bola (bolalar)
9. Bolani (bolalarni) oilaga tarbiyaga berish to‘g‘risidagi shartnoma. Oilaga tarbiyaga olgan shaxslarni moddiy ta□minlash. Bolani (bolalarni) oilaga tarbiyaga berish to‘g‘risidagi shartnomani muddatidan oldin bekor qilish

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamosi. –Toshkent: 2021. (Asosiy)
2. Topildiyev B.R., Imomniyozov D., Musaev Q. Oila huquqi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: TDYU, 2025.-126 b. (Asosiy)
3. Babajanova. D. Oila huquqi. O‘quv qo‘llanma – 2024. (Asosiy)
4. Yuldashev J.I. Vorislik va oila huquqi. Darslik. yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist O.Okyulovning umumiy tahriri ostida. -T.: TDYUU nashriyoti, 2024. 295-bet. (Asosiy)

5. Yetim va ota-ona qaramog‘idan maxrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish. O‘quv qo‘llanma. U.Mahmudxodjayeva. H.Kilichev. Toshkent-2025. 134.bet (Asosiy)
6. Practising Family Law, 5th edition by Ian Serisier Published: 20 June, 2022 ISBN: 9780409356816. (Qo’shimcha).) https://store.lexisnexis

6-mavzu. Meros huquqining umumiy qoidalari

1.Meros huquqining tushunchasi
2.Meros huquqining asosiy o‘ziga xos belgilari
3.Meros huquqining tamoyillari
4.Meros qilib qoldirilishi mumkin bo‘lgan mulklar
5.Merosdan mahrum qilish

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Yuldashev J.I. Vorislik va oila huquqi. Darslik. yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist O.Okyulovning umumiy tahriri ostida. -T.: TDYUU nashriyoti, 2024. 295-bet. (Asosiy)
2. Vorislik huquqi: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma. U.Maxmudxodjayeva. M.Usmonova. Toshkent-2025. 148-bet.
3. Fuqarolik huquqi. 2qism. Darslik. Mualliflar jamoasi. Toshkent-2017. 428-bet.
4. Practising Family Law, 5th edition by Ian Serisier Published: 20 June, 2022 ISBN: 9780409356816. (Qo’shimcha).) https://store.lexisnexis

7-mavzu. Qonun bo'yicha vorislik

1.Qonun bo‘yicha merosxo‘rlarning vorislikka chaqirilish navbati
2.Qonun bo‘yicha merosxo‘rlar
3.Qonun bo‘yicha merosxo‘rlar doirasi
4.Meros qoldiruvchining boqimida bo‘lgan shaxs
5.Vasiyatni bekor qilish va o‘zgartirish
6. Vasiyatnomaning bajarilishi
7. Vasiyatnomaning haqiqiy emasligi

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1.Yuldashev J.I. Vorislik va oila huquqi. Darslik. yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist O.Okyulovning umumiy tahriri ostida. -T.: TDYUU nashriyoti, 2024. 295-bet. (Asosiy)

2.Vorislik huquqi: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma. U.Maxmudxodjayeva. M.Usmonova. Toshkent-2025. 148-bet.

3.Fuqarolik huquqi. 2qism. Darslik. Mualliflar jamoasi. Toshkent-2017. 428-bet

4.Załucki, Mariusz. "Impact of the EU Succession Regulation on Statutory Inheritance." Comparative Law Review 23 (February 7, 2018): 223. http://dx.doi.org/10.12775/clr.2017.010. (Qo’shimcha).) https://store.lexisnexis

5.Avsec, Franci. "Legal Framework of Agricultural Land/Holding Succession and Acquisition in Slovenia." Journal of Agricultural and Environmental Law = Agrár- és Környezetjog 16, no. 30 (April 30, 2021): 24–39. http://dx.doi.org/10.21029/jael.2021.30.24. (Qo'shimcha).) https://store.lexisnexis

6.Szeroczyńska, Małgorzata. "People with intellectual disabilities as heirs. Part 2." Special School LXXXI, no. 3 (June 30, 2020): 224–35. http://dx.doi.org/10.5604/01.3001.0014.2361. (Qo'shimcha).) https://store.lexisnexis

8-mavzu. Vasiyatnoma bo'yicha vorislik

1. Qonun bo'yicha meros olish uchun asoslar
2. Qonun bo'yicha vorislik tamoyillari
3. Meros navbatlarini aniqlash
4. Birinchi bosqichdagi vorislar
5. Keyingi navbatlarning merosxo'rlari
6. Qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga kiritilgan ayrim toifadagi shaxslar
7. Merosdagi majburiy ulush huquqi
8. Er-xotinning merosga bolgan huquqlari
9. Merosni himoya qilish va qonun bo'yicha meros paytida uni boshqarish
10. Meros mulkini ishonchli boshqarish
11. Taqdim etish tartibi bo'yicha meros

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Yuldashev J.I. Vorislik va oila huquqi. Darslik. yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist O.Okyulovning umumiy tahriri ostida. -T.: TDYUU nashriyoti, 2024. 295-bet. (Asosiy)
2. 2.Vorislik huquqi: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. U.Maxmudxodjayeva. M.Usmonova. Toshkent-2025. 148-bet.
3. 3.Fuqarolik huquqi. 2qism. Darslik. Mualliflar jamoasi. Toshkent-2017. 428-bet
4. Załucki, Mariusz. "Impact of the EU Succession Regulation on Statutory Inheritance." Comparative Law Review 23 (February 7, 2018): 223. http://dx.doi.org/10.12775/clr.2017.010. (Qo'shimcha).
5. Avsec, Franci. "Legal Framework of Agricultural Land/Holding Succession and Acquisition in Slovenia." Journal of Agricultural and Environmental Law = Agrár- és Környezetjog 16, no. 30 (April 30, 2021): 24–39. http://dx.doi.org/10.21029/jael.2021.30.24. (Qo'shimcha).
6. Szeroczyńska, Małgorzata. "People with intellectual disabilities as heirs. Part 2." Special School LXXXI, no. 3 (June 30, 2020): 224–35. http://dx.doi.org/10.5604/01.3001.0014.2361. (Qo'shimcha).) https://store.lexisnexis

9-mavzu. Merosni qabul qilish va rad etish

1. Meros mulkini qabul qilish
2.Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma va uning haqiqiy emasligi

3.Merosning taqsimlanishi
4.Meros mulkni egasiz deb topish

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1.Yuldashev J.I. Vorislik va oila huquqi. Darslik. yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist O.Okyulovning umumiy tahriri ostida. -T.: TDYUU nashriyoti, 2024. 295-bet. (Asosiy)
2.Vorislik huquqi: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma. U.Maxmudxodjayeva. M.Usmonova. Toshkent-2025. 148-bet.
3.Fuqarolik huquqi. 2qism. Darslik. Mualliflar jamoasi. Toshkent-2017. 428-bet
4.Załucki, Mariusz. "Impact of the EU Succession Regulation on Statutory Inheritance." Comparative Law Review 23 (February 7, 2018): 223. http://dx.doi.org/10.12775/clr.2017.010. (Qo’shimcha).
5.Avsec, Franci. "Legal Framework of Agricultural Land/Holding Succession and Acquisition in Slovenia." Journal of Agricultural and Environmental Law = Agrár- és Környezetjog 16, no. 30 (April 30, 2021): 24–39. http://dx.doi.org/10.21029/jael.2021.30.24. (Qo’shimcha).
6.Szeroczyńska, Małgorzata. "People with intellectual disabilities as heirs. Part" Special School LXXXI, no. 3 (June 30, 2020): 224–35. http://dx.doi.org/10.5604/01.3001.0014.2361. (Qo’shimcha).
https://www.abbeys.com.au/book/practising-family-law

10-mavzu. Vorislik munosabatlarida sun’iy intellektning qo‘llanilishi

1. Meros obyektini aniqlashda sun’iy intellekdan foydalanish
2. Sun’iy intellekt natijalariga nisbatan meros qoidalari
3. Merosga oid notarial harakatlarda sun’iy intellektdan foydalanish

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1.Yuldashev J.I. Vorislik va oila huquqi. Darslik. yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist O.Okyulovning umumiy tahriri ostida. -T.: TDYUU nashriyoti, 2024. 295-bet. (Asosiy)
2.Vorislik huquqi: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma. U.Maxmudxodjayeva. M.Usmonova. Toshkent-2025. 148-bet.
3.Fuqarolik huquqi. 2qism. Darslik. Mualliflar jamoasi. Toshkent-2017. 428-bet
4.Załucki, Mariusz. "Impact of the EU Succession Regulation on Statutory Inheritance." Comparative Law Review 23 (February 7, 2018): 223. http://dx.doi.org/10.12775/clr.2017.010. (Qo’shimcha) https://www.amazon.com.au.
5.Avsec, Franci. "Legal Framework of Agricultural Land/Holding Succession and Acquisition in Slovenia." Journal of Agricultural and Environmental Law = Agrár- és Környezetjog 16, no. 30 (April 30, 2021): 24–39. http://dx.doi.org/10.21029/jael.2021.30.24. (Qo’shimcha) https://www.booktopia.
6.Szeroczyńska, Małgorzata. "People with intellectual disabilities as heirs. Part" Special School LXXXI, no. 3 (June 30, 2020): 224–35. http://dx.doi.org/10.5604/01.3001.0014.2361. (Qo’shimcha).) https://store.lexisnexis

Sillabusga
2-ILOVA

1-ORALIQ NAZORATI (NAZARIY) BO‘YICHA ASSESSMENT RUBRIKASI (BAHOLASH MEZONLARI)

Baholanadi: MKN I, MKN II, MKN III

Assessment topshirig‘i: MKN I, MKN II, MKN III larda keltirib o‘tilgan mavzular doirasidan talabalarga keys va u bilan bog‘liq nazariy va amaliy savollar beriladi. Talabalar savollarga javobni 2 soatlik vaqt oralig‘ida auditoriya sharoitida javob taqdim etishlari lozim.

.

Baholash: 20 ball

№	1-oraliq nazoratida baholanadigan moduldan kutilgan natija (MKN)	Baholash mezonlari				Qo‘yilgan ball (foizda)
		Qoniqarsiz (0 — 59%)	**Qoniqarli** (60 — 69,9%)	**Yaxshi** (70 — 89,9%)	**A’lo** (90 — 100%)	
1.	Belgilangan mavzu doirasida to‘liq nazariy va amaliy ma’lumotga ega bo‘ladi **(MKN I)**	- Kazus yetarli emas yoki noto‘g‘ri darajada tahlil qilingan.	- Ayrim ma’lumotlar aniqlangan; - keys va u bilan bog‘liq nazariy va amaliy savollarga - Tadqiqot qisman amalga oshirilgan; - manbalar cheklangan.	- Yetarli va mantiqiy izchilikdagi tadqiqot olib borilgan; - tegishli manbalar ishlatilgan.	- Chuqur va tizimli tadqiqot olib borilgan; - ishonchli va xilma-xil manbalardan foydalanilgan.	
2.	NHHlarni qo‘llash vaxorijiy tajribadan foydalanganlik qobiliyatini shakllantirish **(MKN V)**	NHHlarni qo‘llash vaxorijiy tajribadan foydalanganlik	- nhhlar noto‘g‘ri qo‘llanilgan.	- Norma mavjud, lekin umumiy yoki noaniq;	- Norma aniq va huquqiy shaklga mos;	

		qobiliyatini shakllantirish **(MKN V)**		- qisman kazusga asoslangan.	- qiyosiy tahlilga asoslangan.	
Jami o‘rtacha ball (foizda):						
Oraliq nazorat balli:		**20 ball**				
Umumiy konstruktiv taqriz:		**1) Ishning ijobiy jihatlari:** **2) Ishni takomillashtirish kerak bo‘lgan jihatlar va tavsiyalar:**				

Sillabusga

3-ILOVA

2-ORALIQ NAZORATI (AMALIY) BO‘YICHA ASSESSMENT RUBRIKASI (BAHOLASH MEZONLARI)

Baholanadi: MKN IV va MKN V

Assessment topshirig‘i: Talabalarga modul doirasida o‘tilgan mavzular doirasidan tanlanganing nazariy va huquqiy asoslari bo‘yicha 1 ta slayddan iborat infografika tayyorlash.

№	2-oraliq nazoratida baholanadigan moduldan kutilgan natija (MKN)	Baholash mezonlari				Qo‘yilgan ball (foizda)
		Qoniqarsiz (0 — 59%)	**Qoniqarli** (60 — 69,9%)	**Yaxshi** (70 — 89,9%)	**A’lo** (90 — 100%)	
1.	Belgilangan mavzu doirasida to‘liq nazariy va amaliy ma’lumotga ega bo‘ladi **(MKN I)**	- Mavzu yetarli darajada o‘rganilmagan; - Infografika tartibsiz va tushunarsiz.	- Ayrim ma’lumotlar aniqlangan; - Infografika mavjud, lekin yuzaki.	- Asosiy tushuncha va ma’lumotlar o‘rganilgan; - Infografika mantiqli va tushunarli.	- Xususiyatlar tizimli va aniq ajratilgan; - Infografika professional, vizual jihatdan kuchli.	
2.	Muayyan xorijiy mamlakatlarning dvorislik va oila huquqi tizimlarining afzalliklari va kamchiliklarini tanqidiy tahlil eta oladilar **(MKN III)**	- Afzallik/kamchiliklar faqat sanab o‘tilgan; - “Why” (asoslash) yo‘q yoki noto‘g‘ri.	- Ayrim “Why” mavjud, lekin yuzaki; - Sabab–oqibat bog‘lanishi zaif.	- Afzallik/kamchiliklar “Why” bilan tushuntirilgan. - Sabab–oqibat bog‘lanishi aniq.	- Har bir element “Why” bilan asoslangan - Sabab–oqibat tahlili ko‘rsatib berilgan va mantiqan izchil.	
Jami o‘rtacha ball (foizda):						
Oraliq nazorat balli:		**20 ball**				

Umumiy konstruktiv taqriz:	**1) Ishning ijobiy jihatlari:** **2) Ishni takomillashtirish kerak bo‘lgan jihatlar va tavsiyalar:**

Sillabusga
4-ILOVA

YAKUNIY NAZORAT BO‘YICHA ASSESSMENT RUBRIKASI (BAHOLASH MEZONLARI)

Baholanadi: MKN I, MKN II, MKN III

Assessment topshirig‘i: Talabalarga keys va u bilan bog‘liq nazariy va amaliy savollar beriladi. Talabalar savollarga javobni 2 soatlik vaqt oralig‘ida auditoriya sharoitida hamda kuzatuv ostida komyuterda universitetning elektron ta’lim platformasida yozadilar.

Baholash: 60 ball

№	Yakuniy nazoratida baholanadigan moduldan kutilgan natija (MKN)	Baholash mezonlari				Qo‘yilgan ball (foizda)
		Qoniqarsiz (0 — 59%)	**Qoniqarli** (60 — 69,9%)	**Yaxshi** (70 — 89,9%)	**A’lo** (90 — 100%)	
1.	oilaviy munosabatlarni aniqlash va tavsiflash **(MKN I)**	Huquqiy munosabatni noto‘g‘ri yoki umuman aniqlay olmaydi.	Huquqiy munosabatni qisman aniqlaydi, ayrim xatolarga yo‘l qo‘yadi.	Huquqiy munosabatni to‘g‘ri aniqlaydi va asosiy	Huquqiy munosabatni to‘liq va asoslantirilgan holda tahlil qiladi.	

				elementlarini ko‘rsatadi.		
2.	Kazusdagi yuridik faktlarni aniqlash **(MKN II)**	Muhim yuridik faktlarni ajrata olmaydi.	Asosiy faktlarning bir qismini aniqlaydi.	Muhim yuridik faktlarni to‘g‘ri aniqlaydi.	Barcha ahamiyatli yuridik faktlarni aniqlab, ularning huquqiy ahamiyatini izohlaydi.	
3.	Fuqarolik qonunchiligi normalarini qo‘llash **(MKN III)**	Tegishli huquq normalarini topa olmaydi yoki noto‘g‘ri qo‘llaydi.	Huquq normalarini qisman qo‘llaydi.	Tegishli normalarni to‘g‘ri qo‘llaydi.	Normalarni tizimli ravishda qo‘llab, ularni ilmiy va amaliy jihatdan asoslaydi.	
Jami o‘rtacha ball (foizda):						
Yakuniy nazorati balli:		**60 ball**				
Umumiy konstruktiv taqriz:		**1) Ishning ijobiy jihatlari:** **2) Ishni takomillashtirish kerak bo‘lgan jihatlar va tavsiyalar:**				